



XVI-XVIII ASRLARDA XIVA XONLIGINING DIPLOMATIK VA SAVDO-IQTISODIY MUNOSABATLARI

Choriye Asadbek

Termiz davlat pedagogika institute Pedagogika va ijtimoiy fanlar
fakulteti Tarix ta'lim yo'nalishi 4-kurs
talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18538377>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05- fevral 2026 yil
Ma'qullandi: 07- fevral 2026 yil
Nashr qilindi: 09- fevral 2026 yil

KEY WORDS

Xiva xonligi, diplomatik munosabatlar, savdo-iqtisodiy aloqalar, XVI-XVIII asrlar, Buxoro xonligi, Safaviylar, Nodirshoh, Rossiya, Eron, Hindiston, karvon savdosi, Amudaryo.

ABSTRACT

XVI-XVIII asrlar Markaziy Osiyo tarixida murakkab siyosiy jarayonlar, davlatlararo munosabatlarning kuchayishi va xalqaro savdo aloqalarining kengayishi bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda Xiva xonligi mintaqaning muhim siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri sifatida shakllandi. Xonlikning geografik joylashuvi – Amudaryo quyi oqimi, Kaspiy dengizi va Yevroosiyo savdo yo'llariga yaqinligi uning tashqi siyosati va savdo-iqtisodiy munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur maqolada XVI-XVIII asrlarda Xiva xonligining yirik davlatlar va qo'shni mamlakatlar bilan olib borgan diplomatik aloqalari, savdo munosabatlari, iqtisodiy taraqqiyoti va xalqaro munosabatlardagi o'rni yoritiladi.

XVI asrdan boshlab tarix sahnasida muhim iz qoldirgan O'rta Osiyo xonliklaridan biri Xiva xonligidir. Xiva xonligi o'zining geografik jihtdan qulay joyda joylashganligi va suv yo'li bilan ta'minlanganligi sababli O'rta Osiyodagi eng rivojlangan davlatlardan bo'lgan. Xiva xonligi karvon yo'llari ustida joylashgan. Ayniqsa, u Rossiyaning Buxoro bilan savdo aloqalarida muhim o'rin egallagan. Xiva xonligi G'arb bilan Sharq o'rtasidagi savdoda faol qatnashgan. Xonlikning tashqi savdo aloqalaridagi faol ishtiroki uning siyosiy, iqtisodiy va madaniy soxalardagi taraqqiyoti bilan bog'liq. Xiva xonligi iqtisodiyotining turli tarmoqlari jadal rivojlangan bo'lib, xonlikning yirik shaharlarida hunarmandchilikning ma'lum ishlab chiqarish soxalari bo'yicha ixtisoslashganligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, Xivada gilam to'qish, yog'och o'ymakorligi, to'quvchilik va bopsha hunarmandchilik tarmoqlari mavjud bo'lgan. Xivaning azaldan moddiy va ma'naviy madaniyat markazi bo'lib kelganligini, xivaliklarning boshqa davlatlar bilan iqtisodiy-savdo aloqalarini davom ettirib kelganligini XVI asrda ham kuzatish mumkin, degan xulosa qilishga imkoniyat beradi.

Xiva xonligi XVI asrda Rossiya, Hindiston, Eron, Buxoro xonligi bilan savdo aloqalarida bo'lgan. Xivaning tashqi iqtisodiy aloqalarini Xivaga kelgan rossiyalik va chet ellik elchilarning, hamda Rossiyaga borgan xivalik elchilarning keltirgan ma'lumotlarini tahlil qilish asnosida yoritishga harakat qilamiz. Jumladan, 1585 yil 11 noyabrda xivalik elchi Xo'ja Muhammadning Rossiya podshosi Fedor Ivanovichga keltirgan tortiqlari orasida tillo zari yuritilgan har xil

ranglar bilan bo'yalgan, qimmatbaho mashhad kamoni ham bo'lgan. Bu esa Xivaning Eron bilan savdo qilganligining bir isboti hisoblanadi. A.Chuloshnikov XVI asr o'rtalarida Moskva davlatining O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini yoritish jarayonida rus hukumatining Hindistonni o'rganishga intilishini xam e'tibordan chetda qoldirmagan. Ko'rib o'tilganidek, XVI asr ikkinchi yarmidan e'tiboran Rossiya Hindistonga boradigan karvon yo'llarini qidirib O'rta Osiyo va Eronga maxsus elchiliklar jo'natgan edi. Bu vaqtlarda Rossiya bilan Hindiston o'rtasida bevosita iqtisodiy munosabatlar yo'lga qo'yilmagan bo'lsa ham, hind tovarlari o'rta osiyolik savdogarlar orqali Rus yerlariga kirib kelgan. A.Chuloshnikov o'rta asrlarda O'rta Osiyo bilan Rossiya o'rtasida savdo aloqalarining quyidagi usullari mavjud bo'lganligini e'tirof qiladi. Birinchidan, shox va xonlar o'rtasidagi savdo bo'lib, ular ishonchli vakillari - shaxslar, mehmonlar va savdogarlar orqali amalga oshirilgan. Ikkinchidan, xususiy savdogarlarning erkin tovar ayiriboshlashi, va nixoyat, uchinchidan, xadya taridasida xon va elchilarning nodir buyumlarni ayiriboshlashi¹.

Xiva bilan Rossiya munosabatlarining muhim jihati shunda ediki, o'zaro savdodan har ikkala davlat ham birdek manfaatdor bo'lgan. Xiva savdogarlari uchun Rossiyaga boradigan savdo yo'llari xavfsiz edi. Shuningdek, Xiva xonligida Rossiyaning zavod va fabrikalarida ishlab chiqarilgan tayyor iste'mol tovarlariga extiyoj baland edi. Ayni paytda Rossiya Xiva xonligiga o'z tovarlarini sotadigan bozor deb qarar edi. Rossiya tovarlari Yevropaning ilg'or davlatlari tovarlari bilan raqobat qila olmayotgan bir davrda, bu juda muhim edi. Ikkinchidan, Xiva xonligi, Rossiya sanoati uchun zarur xomashyo mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib beruvchi o'lka ham hisoblanardi. Shuning uchun ikki mamlakatning o'zaro iqtisodiy va diplomatik munosabatlari yanada jonlanadi va keying asrlarda jadal davom etib turadi. Shu boisdan ham, Xiva xonligi bilan olib boriladigan munosabatlar Rossiya tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. XVII asrda xam Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasida elchilik va savdo aloqalari davom etgan. Elchilar Xiva xoni nomidan rus podshosiga tortiqlar olib borgan.

XVII asr o'rtalarida Rossiya va Xiva xonligi o'rtasidagi rasmiy aloqalar kuchayib, shu asosda mamlakatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalar ham jadallashib bordi. Ular bir-birlariga elchilar yuborib, o'zaro munosabatlarini rivojlantirdi. Aka-uka Pozuxinlar Rossiyadan O'rta Osiyoga birinchilar qatorida yuborilgan elchilar bo'lib, ular 1674 yilda Xiva va Buxoroga elchi sifatida kelgan edilar. XVI-XVII asrlarda Xiva xonligi doimo rus davlatining diqqat markazida bo'lgan. Xiva xonligining Hindiston va boshqa qo'shni davlatlari bilan aloqalarini o'rganish orqali Rossiya uchun Hindistonga boradigan eng qulay va bexavotir yo'llarni qidirib topishni maqsad qilishgan.

XVIII asrda Rossiya O'rta Osiyo xonliklari bilan yaqin savdo aloqalari o'rnatishga jadal kirisha boshlaydi. Bu davrda dengiz savdosining ahamiyati ortib bora boshlaydi. Savdogarlar Astraxandan Kaspiy dengizi orqali Mang'ishloqqa, u yerdan quruqlik bilan Urganch, Xiva va Buxoroga borishgan.

XVIII asrga kelib O'rta Osiyo bilan Rossiya orasidagi diplomatik jarayonlar yanada jadallashadi. Bu esa O'rta Osiyo boyliklariga Rossiya ichki bozori talablarining ortib borishi natijasi edi. 1714 yilda Pyotr I Kaspiy dengiziga poruchik knyaz Bekovich Cherkasskiyni

¹ Чулошников А. Торговля Московского государства с народами Средней Азии XVI-XVII вв. Вкн.: Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч. 1. — JL-1932. — С. 68

jo'natadi va unga bu yerdan Xivaga borish topshirig'i yuklatildi. 1715 yilning aprelida Bekovich-Cherkasskiy Astraxandan yo'lga chidib, Kaspiyning sharqiy qirg'oqlariga yetib keladi². O'rta Osiyo va Kaspiy dengizining ilmiy kartalarini tuzish 1715 yildagi Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasiga tegishlidir. Pyotr I ni o'z davrida Buxoro va Xiva xonliklarining tabiiy va boshda boyliklari o'ziga tortgan edi. Yozma manbalardan tashqari Rossiya amaldorlari Buxoro va Xiva xonliklaridan borgan elchi va savdogarlarning tortiqlaridan, gap-so'zlaridan, kiyinishlaridan ham bu mamlakatlar xazinasining mo'l-ko'lligini yaxshi anglab oldilar. Pyotr I ning saroyida bo'lgan Xo'ja Nafas Amudaryoning Kaspiyga quyiladigan joyidan oltin sochmalari aralash qum oqqanligi, uzbeklar (xivaliklar) ruslarning osongina kirib kelishidan xavfsirab, uni Orolga burib yuborganligi tug'risida gapirib, tug'onni buzib tashlab daryoni yana Kaspiyga oqqizish mumkinligi tug'risida ma'lumot beradi. Xiva xonligining Peterburgdagi elchisi Ashurbek bunga guvohlik beradi. O'sha paytda Peterburgga kelgan Sibir hokimi knyaz Gagarin ham Xiva va Buxoroning tillali qumi tug'risida xabar keltiradi. Bu xabar Pyotr I ning Sharqqa qiziqishini orttirgan.

XVIII asrning 40-yillari oxirlaridan Erondagi ichki vaziyatning og'irligi va g'alayonlar hind savdosiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatgan. Eronda xonavayron bo'lgan hind savdogarlari endilikda e'tiborlarini O'rta Osiyo savdosiga qaratishga majbur bo'lgan. Avvallari unchalik rivojlanmagan hind savdosi, XVIII asrning ikkinchi yarimida muntazam davom etadigan va keng miqyosda olib boriladigan bo'ldi. Demak, birinchidan, Xiva xonligi Eron bilan savdo aloqalari o'rnatgan bo'lgan, ikkinchidan xiva tovarlari hind savdogarlari qo'li bilan Rossiyaga olib borilgan, uchinchidan hindlar Eron orqali Xiva-Rossiya savdosida vositachi rolini bajargan. XVIII-XIX asrlarda Xiva xonligi muayyan dinamik taraqqiyot bosqichiga erishgan edi. Qo'shni Buxoro amirligi, Qozoq juzlari va bebosh turkman urug'larining murakkab o'rovi sharoitida bo'lishiga qaramay, xonlikda ba'zi barqaror holatlar kuzatiladi.

Rossiyaga O'rta Osiyodan keltirilayotgan tovarlar orasida Eron tangalari ham bo'lgan. Masalan, 1749 yil Orenburg orqali Astraxanga 14 savdogar 17896 rub.lik 17 partiya tovarlar, shu jumladan, 10532 rub.lik 15 pud 10 funt ogirlikdagi kumushdan iborat bo'lgan 3 partiya tovarlar keltirilgan. 3 partiya kumush bu "abbosiy" deb ataluvchi eronning kumush tangalari hisoblangan. O'rta Osiyolik savdogarlar kumushni Orenburgda tovarlarga ayirbosh qilishgan. Kumushlar Moskvadagi pul zarbxonalarida har zolotnigi (rus o'lchov birligi), ya'ni misqoli (4.25 grammga tent og'irlik o'lchovi) 18 qop.dan yoki bir pudi 691 r. 20 k.dan qabul qilingan³.

Rossiyaga kumush tangalar Xiva va Buxorodan O'rta Osiyolik savdogarlar orqali keltirilgan. Demak, XVIII asr o'rtalarida Xiva bilan Eron o'rtasida savdo aloqalari qalinroq bo'lgan, degan xulosa qilish mumkin. Xiva va Buxorodan Astraxanga tovarlarni O'rta Osiyolik savdogarlar, ya'ni xivaliklar, buxoroliklar va turkmanlar olib kelgan. 30-yillarda Astraxanga keltirilgan jami tovarlarning taxminan 51% O'rta Osiyoliklar zimmasiga tushgan. Ular orsida xivaliklar yetakchi mavqeyni egallagan. 1734-1735-yillarda O'rta Osiyolik savdogarlar Astraxanga 17 ming rub.lik tovar olib kelgan bo'lib, shundan 13 mingga xivaliklar zimmasiga tushgan. Xulosa qilib aytish mumkinki, Astraxan orqali Rossiya bilan Xiva va Buxoro xonliklari o'rtasidagi savdoda xivalik savdogarlar muhim o'rinni egallaganlar. Astraxan bojxonasiga

² Лебедев Д.М. География в России Петровского времени. - М.-Л.: Изд-во АН СССР. 1950.-С . 107.

³ Юхт А.И. Торговля Хивы и Бухары с Россией через Астрахань (20-40-е годы XVIII в.)

//Позднефеодальный город Средней Азии. - Т.: 1990. - С. 118.

keltirilgan tovarlarni ro'yxatga olish kitoblarida O'rta Osiyodan Rossiyaga keltirilgan tovarlar ro'yxati, tovarlarning o'lchov miqdori va narxlari haqidagi ma'lumotlarga asoslanib Rossiyaning O'rta Osiyo bilan savdosida xivalik savdogarlar yetakchi o'rinni egallaganliklariga umid qilish mumkin.

Xivaliklar o'zlari bilan mahalliy tovarlar qatori Eron va Hindiston tovarlarini ham Astraxanga olib borganliklarini ko'rishimiz mumkin. Xiva xonligi tarixi va uning qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalari to'g'risida anchagina ma'lumotlar mavjud. Ma'lumotlarning aksariyati Rossiya tomonidan O'rta Osiyo xonliklarini, Eron va Hindistonni o'rganish maqsadida jo'natilgan elchilar va diplomatlar tomonidan yig'ilgan dalillardan iboratdir⁴. 1734 yili Angliya bilan Rossiya o'rtasida Rossiya orqali sharq mamlakatlari bilan tranzit savdo yo'llaridan foydalanish haqidagi bitim tuziladi. Bitim imzolangach, darhol, Rossiya kompaniyasining ingliz vakillari Rossiya orqali Eronga boradigan qulay savdo yo'llarini qidira boshlaydilar va shu maqsadda O'rta Osiyo, Ozarbayjon va Eronga bir necha xufiya ekspeditsiyalari tashkil qildilar. Shu maqsadda, 1739 yili «Rus kompaniyasi»ning vakillari Djon Elton va Mungo Gremlar Xiva va Buxoroga jo'natilgan edi. Lekin Nodirshohning O'rta Osiyoga hujumi xavfi haqidagi xabarni eshitgach, ular Astraxandan tug'ri Eronga ketishni afzal ko'rishgan. Bu boshlangan ishni yakuniga yetkazish maqsadida 1740-yil fevralda «Rus kompaniyasi» Xiva va Buxoroga yangi ekspeditsiya uyushtiradi. Uning tarkibida Georg Tompson va Regnald Xogg kabi josuslar bor edilar. Ular Xiva va Buxoroda savdo-sotiq sharoitlarini o'rganishlari kerak edi.

Mazkur ekspeditsiya Rossiyaning janubi-sharqiy chegaralari va Qozog'iston cho'llari orqali yo'lga tushadi. G.Tompson va R.Xogglarning kundaliklari Eronda bo'lgan «Rus kompaniyasi» savdogari Jonas Xonvey kitobida nashr qilingan. Bu kitobdan, muallifning va XVIII asrning birinchi yarmida Eronga kelgan boshqa yevropaliklarning yo'l kundaliklari o'rin olgan. Ushbu kitobdagi ma'lumotlar XVIII asrning 30-40-yillarida O'rta Osiyo shaharlari, Ozarbayjon va Erondagi ichki va tashqi savdoning ahvoli, shaharlar hunarmandchiligi to'g'risidagi xabarlardan iborat. G.Tompson va R.Xogg 1740-yili 9-sentyabrda Yoyiq shahri orqali Qozog'iston cho'llari, Orol dengizining shimoliy-g'arbiy qirg'oqlari orqali o'tib Xivaga kirib kelishgan. Ingliz josuslari Xivadagi ichki savdoning holatini tahlil qilib, ular faqat Buxoro va Eron bilan savdo qiladilar, hayvon, mo'yna va terilarni qirg'iz (qozoq-A.R) va turkmanlardan oladilar deb, xabar qiladi. Qirg'izlar va turkmanlar xivaliklar uchun xavfli qo'shni hisoblashgan ekan. Xivada uncha ko'p bo'lmagan paxta ekilgan, o'rtacha sifatli qo'y terisi (qorako'l bo'lishi mumkin), uncha ko'p bo'lmagan xom ipak yetishtirgan va ipakdan mahsulot ishlab chiqarilgan. Shunday qilib, ular Xivada ingliz sanoatini qiziqtiradigan xomashyo manbai ham deb qayd etishadi. Hind tovarlariga kelsak G. Tompson va R. Xogglar bu yerda bo'lganlarida hind tovarlarini ko'rishmagan. Ular Xivaning Buxoro va Eron hamda qo'shni ko'chmanchilar bilan savdo qilganliklarini e'tirof etishgan⁵.

Xulosa: Xulosa shulkim, mavjud manbalar, elchi va savdogarlarning ko'rsatmalari, elchilarning kundaliklarida e'lon qilingan xabarlar bizga Xiva xonligining tashki iqtisodiy aloqalari to'g'risida muxim ma'lumotlarni berishi bilan hozirgi kunda ham o'zining qimmatini

⁴ Юнусова Л.И. Торговля городов Средней Азии, Азербайджана и Ирана в 30-40- х гг. XVIII в. (по европейским источникам) //Позднефеодальный город Средней Азии. - Т.: 1990. - С. 122-128.

⁵ Юнусова Л.И. Уша асар. — С. 124.

saqlab qolmovda. Keltirilgan dalillarga asoslanib, Xiva xonligi XVI-XVIII asrlarda Buxoro, Eron, Hindiston va Rossiya davlatlari bilan qizg'in savdo va diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'ygan deyish mumkin. XVI-XVIII asrlarda Xiva xonligi Markaziy Osiyoda muhim diplomatik va savdo-iqtisodiy markaz bo'lib xizmat qilgan. Xonlikning tashqi siyosati asosan savdo manfaatlarini himoya qilish, xavfsizlikni ta'minlash va mintaqaviy ta'sirni saqlashga qaratilgan edi. Diplomatik munosabatlar va savdo aloqalari Xiva xonligining iqtisodiy rivojiga, siyosiy mavqeining mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Bu aloqalar keyingi davrlarda mintaq tarixiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч. 1. - М.: 1932.- С. 99.
2. Чулошников А. Торговля Московского государства с народами Средней Азии XVI-XVII вв. Вкн.: Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч. 1. — II-1932. — С.68
3. Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч. 1. — Л.: 1932.-С. 168.
4. Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч. 1. -С.198.
5. Уша асар. - С. 317.
6. Неъматов Т. Хива ва Россия муносабатлари тарихидан. - Тошкент.: 1959. - Б. 32-33.
7. Абулгози Б. Шажарайи турк. — Т.: 1992. - Б. 158-159, 167.
8. Лебедев Д.М. География в России Петровского времени. - М.-Л.: Изд-во АН СССР. 1950.- С. 107.
9. Юхт А.И. Торговля Хивы и Бухары с Россией через Астрахань (20-40-е годы XVIII в.) //Позднефеодальный город Средней Азии. - Т.: 1990. - С. 118.
10. Юнусова Л.И. Торговля городов Средней Азии, Азербайджана и Ирана в 30-40- х гг. XVIII в. (по европейским источникам) //Позднефеодальный город Средней Азии. - Т.: 1990. - С. 122-128.
11. Юнусова Л.И. Уша асар. — С. 124.